O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:94.5

Dilshodbek KALONOV,
Tadqiqotchi,O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, katta o‘qituvchi, Sarbon universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail : kalonov@gmail.com, ORCID: 0000-0002-9893-0789

Dotsent, PhD R.Djurayev taqrizi asosida

THE USE OF NATURAL GAS FOR DOMESTIC NEEDS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the historical formation and dynamics of natural gas use in Uzbekistan to meet the country's domestic energy needs. The study focuses on the role of natural gas in the national fuel and energy balance, gas supply to households and the public utilities sector, as well as the use of natural gas in electricity generation, industry, and transport. Particular attention is paid to the relationship between natural gas production volumes, the structure of domestic consumption, and its regional characteristics. In addition to the economic significance of natural gas consumption, the study considers issues of energy efficiency, rational use of natural resources, reliable domestic energy supply, and diversification of the national energy system. The findings demonstrate that natural gas has remained one of the principal energy resources of Uzbekistan for a long period, while its allocation for domestic consumption has been closely associated with the development of industry, public utilities, electricity generation, and improvements in household living standards.

Key words: Uzbekistan, natural gas, gas industry, domestic consumption, energy sector, fuel and energy balance, gas production, gas supply, industry, electricity generation, public utilities, energy security.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНОГО ГАЗА ДЛЯ ВНУТРЕННИХ НУЖД В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье анализируются историческое формирование и динамика использования природного газа в Узбекистане для обеспечения внутренних потребностей страны. Исследуется роль природного газа в топливно-энергетическом балансе, процессы газоснабжения населения и коммунального хозяйства, использование газа в электроэнергетике, промышленности и транспортной сфере. Особое внимание уделяется взаимосвязи между объемами добычи природного газа, структурой внутреннего потребления и его территориальными особенностями. Наряду с экономическим значением использования природного газа рассматриваются вопросы повышения энергоэффективности, рационального использования природных ресурсов, обеспечения устойчивого внутреннего спроса и диверсификации энергетической системы. Результаты исследования показывают, что природный газ на протяжении длительного периода являлся одним из основных энергетических ресурсов Узбекистана, а его распределение для внутренних нужд было тесно связано с развитием промышленности, коммунального хозяйства, электроэнергетики и повышением уровня жизни населения.

Ключевые слова: Узбекистан, природный газ, газовая промышленность, внутреннее потребление, энергетика, топливно-энергетический баланс, добыча газа, газоснабжение, промышленность, электроэнергетика, коммунальное хозяйство, энергетическая безопасность.

O‘ZBEKISTONDA TABIIY GAZNING MAMLAKAT ICHKI EHTIYOJLARI UCHUN FOYDALANILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda tabiiy gaz resurslaridan mamlakat ichki ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida foydalanilishining tarixiy shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiiy gazning yoqilg‘i-energetika balansidagi o‘rni, aholi va kommunal xo‘jalikni tabiiy gaz bilan ta’minlash, elektr energetikasi, sanoat tarmoqlari hamda transport sohasida gazdan foydalanish jarayonlari o‘rganiladi. Shuningdek, gaz qazib chiqarish hajmi, ichki iste’molning tarkibi va hududiy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiiy gazdan foydalanishning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri bilan bir qatorda, energiya samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, ichki bozorni barqaror ta’minlash va energetika tizimini diversifikatsiya qilish masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Olingan natijalar O‘zbekistonda tabiiy gaz uzoq vaqt davomida iqtisodiyotning asosiy energiya manbalaridan biri bo‘lib kelganini hamda uning ichki ehtiyojlar uchun taqsimlanishi sanoat, kommunal xo‘jalik, energetika va aholi turmush darajasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tabiiy gaz, gaz sanoati, ichki iste’mol, energetika, yoqilg‘i-energetika balansi, gaz qazib chiqarish, gaz ta’minoti, sanoat, elektr energetikasi, kommunal xo‘jalik, energiya xavfsizligi.

Kirish. Tabiiy gaz zamonaviy jahon energetika tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni, ayniqsa tabiiy gaz zaxiralariga ega mamlakatlarda yuqori hisoblanadi. Energetik resurslarning mavjudligi va ulardan samarali foydalanish mamlakatning sanoat salohiyati, aholini energiya bilan ta’minlash darajasi, transport va kommunal infratuzilmaning rivojlanishi hamda iqtisodiy xavfsizligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekistonning tabiiy gaz resurslaridan foydalanish tarixi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va energetika siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston hududi tabiiy gaz resurslariga boy bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab gaz qazib chiqarish va undan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Gaz konlarining o‘zlashtirilishi mamlakatning yoqilg‘i-energetika balansida tabiiy gaz ulushining ortishiga olib keldi. Natijada tabiiy gaz nafaqat sanoat korxonalarining asosiy energiya manbalaridan biriga, balki aholi va kommunal xo‘jalikni energiya bilan ta’minlashning muhim vositasiga aylandi.

Sovet davrida O‘zbekiston hududidagi gaz konlarining o‘zlashtirilishi respublikaning umumittifoq yoqilg‘i-energetika tizimiga integratsiyalashuvi bilan kechdi. Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa hududlarda gaz qazib chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi tabiiy gazdan sanoat, energetika va kommunal xo‘jalikda keng foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. Mustaqillik yillarida esa tabiiy gazdan foydalanish masalasi milliy energetika xavfsizligi, ichki bozorni barqaror energiya bilan ta’minlash va eksport salohiyatini shakllantirish bilan bog‘liq holda yangi mazmun kasb etdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda tabiiy gaz sanoati va undan foydalanish masalalari energetika iqtisodiyoti, iqtisodiy geografiya, sanoat tarixi va ekologiya yo‘nalishlarida olib borilgan tadqiqotlarda turli jihatlardan o‘rganilgan. Mavzuga oid adabiyotlarni shartli ravishda bir necha asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni O‘zbekistonda gaz sanoatining shakllanishi va rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Ushbu ilmiy ishlarda gaz konlarining ochilishi, qazib chiqarish infratuzilmasining barpo etilishi, gaz quvurlari tarmoqlarining kengayishi va respublikaning sobiq Ittifoq energetika tizimidagi o‘rni yoritiladi. Mazkur tadqiqotlar tabiiy gazning O‘zbekiston sanoatlashuvi jarayonidagi ahamiyatini tushunish uchun muhim manbaviy asos yaratadi. Ikkinchi guruhga energetika iqtisodiyoti va yoqilg‘i-energetika balansi masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar kiradi. Ularda tabiiy gaz qazib chiqarish, ichki iste’mol, eksport, elektr energetikasi va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tabiiy gazning mamlakat iqtisodiyotidagi iqtisodiy qiymatini baholash imkonini beradi.

Uchinchi guruh tadqiqotlarida mustaqillik yillarida O‘zbekiston energetika siyosatining o‘zgarishi, energiya xavfsizligini ta’minlash va tabiiy gazdan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu ishlarda ichki iste’molning ortishi, aholini tabiiy gaz bilan ta’minlash, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va muqobil energiya manbalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda tabiiy gazdan ichki ehtiyojlar uchun foydalanilish jarayonini kompleks tahlil qilish maqsadida tarixiy, iqtisodiy va statistik tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Tarixiylik va xronologik yondashuv orqali tabiiy gaz sanoatining shakllanishi, gaz qazib chiqarishning kengayishi va ichki iste’mol tizimining rivojlanishi tarixiy davrlar kesimida o‘rganiladi. Ushbu metod gazdan foydalanish jarayonidagi bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida turli davrlarda tabiiy gazdan foydalanish ko‘lami va yo‘nalishlari o‘zaro taqqoslanadi. Bunda sovet davri va mustaqillik yillaridagi energetika siyosati, ichki iste’mol tarkibi va gaz ta’minoti tizimidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratiladi. Statistik metod tabiiy gaz qazib chiqarish, iste’mol qilish, elektr energetikasida foydalanish va sanoat ehtiyojlariga yo‘naltirilgan gaz hajmlarining dinamikasini aniqlash uchun qo‘llanadi. Statistik ma’lumotlarni vaqt bo‘yicha taqqoslash orqali ichki talab va taklif o‘rtasidagi o‘zgarishlar baholanadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda neft va gaz sanoatini rivojlantirishning asosiy maqsadi – yoqilg‘i resurslaridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish orqali iqtisodiyotning barcha sohalari va aholini ushbu resurslar bilan barqaror ta’minlashga qaratilgan. Bunda samarali davlat tizimi, davlat va jamiyatning o‘zaro uyg‘un harakatlar tizimi mavjud bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Iqtisodiyotni yanada taraqqiy ettirish talablari, insonlar turmush tarzining o‘sishi, kelajak avlod manfaatlarining saqlanishi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, neft va gaz sanoati korxonalari faoliyat ko‘rsatishining ishonchliligi va xavfsizligi ta’minlanishi ko‘zda tutiladi. Neft-gaz sanoatining rivojlanishi eng avvalo, sohadagi boshqaruv tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilab berilgan neft-gaz tarmog‘i korxonalari faoliyatining strategik ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vazifalarini ro‘yobga chiqarish yuzasidan respublika hukumati aniq belgilangan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirishga kirishdi[2]. Avvalo, tarqoq holda faoliyat yuritayotgan soha korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida soha boshqaruvida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 3-maydagi № PF-393 sonli farmoniga binoan “O‘zbekneftegaz” O‘zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni tashkil etildi[4]. Ushbu farmon asosida qabul qilingan respublika hukumati qaroriga ko‘ra konsern faoliyatining quyidagi asosiy vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berildi:

- respublika hududida neft, gaz va gaz kondensatini izlash, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashishni, gaz, neft hamda neft va gazni qayta ishlash sanoati inshootlari qurilishini amalga oshiruvchi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- neft va gaz konlaridan samarali foydalanishni, respublikada neft, gaz hamda neft va gazni qayta ishlash sanoati yanada rivojlanishini, neft va gaz zahiralarini ko‘paytirishni ta’minlash;
- konsern tizimida yagona texnikaviy siyosatni o‘tkazish, korxonalarni kengaytirishda, qayta qurish va texnika bilan qayta qurollantirishda, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishda ko‘maklashish;
- neft, gaz hamda gaz kondensatini izlash, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashish sohasidagi ilmiy-tadqiqot, qidiruv va loyiha-konstruktorlik ishlarini tashkil qilish;
- neft va gaz konlarini izlash hamda ulardan foydalanish borasidagi ishlarni o‘tkazish chog‘ida yer osti va boshqa tabiiy boyliklarni muhofaza qilish talablariga rioya etish;
- moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlashda, ijtimoiy muammolarni hal qilishda neft, gaz hamda neft va gazni qayta ishlash sanoati korxonalari va tashkilotlarining tijorat aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashish;
- konsern tarkibiga kirgan korxonalar, tashkilotlar va muassalarni malakali xodimlar bilan mustahkamlashga doir ishlarni amalga oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil qilish;
- ochiq gaz va neft favvoralari yuzaga kelishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- konsern tarkibiga kirgan korxonalar va tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish, davlat boshqaruvi idoralarida va chet ellarda ularning umumiy manfaatlarini ifoda etish.

O‘zbekistonning neft va gaz konlarini kompleks va samarali o‘zlashtirilishini boshqarish tuzilmasini yanada takomillashtirish, tarkibiy bo‘linmalarning tashabbuslari va mustaqilligini kengaytirish, iste’molchilarni neft, neft mahsulotlari va gaz bilan ishonchli ta’minlash maqsadida hamda bozor munosabatlarining zaruriyat va talablari inobatga olingan holda yil oxiriga kelib soha tashkiliy-boshqaruv tizimida o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1992-yil 23-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko‘ra O‘zbekiston neft va gaz sanoati konserni neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasiga aylantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “O‘zbekgazsanoat” va “O‘zbekneft” ishlab chiqarish birlashmalari tugatildi[6].

Korporatsiya neft va gaz sanoati tarkibiy tuzilmasi tarmoq korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi davlat-aksiyadorlik, davlat, davlat ishlab chiqarish va ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini o‘z ichiga oldi. Bu chora-tadbirlar muassis va aksiyador rolida davlatning ishtirok etishi bilan tavsiflanadigan birinchi bosqichni belgilab berdi. Ushbu holatda davlat korporatsiyasi tarkibiy birliklarning yaxshi boshqaruvchanligi hamda mablag‘larning markazlashgan tarzda kelib tushishi bilan tavsiflanadi, biroq tashqaridan investitsiya ko‘rinishidagi moliyaviy oqimlarni istisno etadi[7].

“O‘zbekneft” va “O‘zbekgazprom” birlashmalari biriktirilib, “O‘zneftgazqazibchiqarish” davlat aksiyadorlik birlashmasiga aylantirildi. Gazni yetkazib berish (transportirovka qilish) korxonasi undan ajratilib, “O‘ztransgaz” davlat aksiyadorlik birlashmasi tashkil etildi. Shuningdek, korporatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob berishi belgilandi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida soha korxonalarini boshqarishni optimallashtirish, tarmoqqa menejmentning ilg‘or usullarini joriy etish, xorijiy investitsiyalar jalb etishni rag‘batlantirish maqsadida sanoat boshqaruvida yangilanishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 11-dekabrdagi Farmoniga muvofiq, milliy korporatsiya “O‘zbekneftgaz” Milliy xolding kompaniyasi(MXK)ga aylantirildi. Milliy xolding kompaniyasining ustuvor vazifa va yo‘nalishlari qatoriga quyidagilar ham kiritildi[10]:

- joriy va uzoq muddatli taxminlarni, gaz, neft va neftni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning, tabiiy resurslardan va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning aniq maqsadli ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish;

- xorijiy mamlakatlar va kompaniyalar bilan iqtisodiy, texnikaviy, texnologik va investitsiya sohasidagi hamkorlikni har tomonlama kengaytirish.

Xulosa. O‘zbekistonda tabiiy gazdan mamlakat ichki ehtiyojlari uchun foydalanish jarayoni mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Tabiiy gaz resurslarining o‘zlashtirilishi O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika tizimini rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, elektr energetikasini barqarorlashtirish va aholini energiya resurslari bilan ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tabiiy gazning ichki iste’moldagi o‘rni bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, gaz elektr energiyasi ishlab chiqarishning muhim manbalaridan biri sifatida energetika tizimining barqaror faoliyatini ta’minlab kelgan. Ikkinchidan, sanoat korxonalarida tabiiy gazdan yoqilg‘i va texnologik xomashyo sifatida foydalanilishi ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qilgan. Uchinchidan, aholi va kommunal xo‘jalikni tabiiy gaz bilan ta’minlash mamlakatning ijtimoiy infratuzilmasi va aholining kundalik turmush sharoitlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning tabiiy gazga yuqori darajada bog‘lanishi energetika tizimida muayyan tarkibiy muammolarni ham yuzaga keltirgan. Ichki talabning ortishi, gaz qazib chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi nisbat, infratuzilmaning texnik holati, energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish masalalari tobora muhimlashib bormoqda.

Shu sababli zamonaviy sharoitda tabiiy gazdan foydalanish siyosati faqat qazib chiqarish va iste’mol hajmini oshirishga emas, balki energiya samaradorligini oshirish, gazni chuqur qayta ishlash, yo‘qotishlarni kamaytirish, ichki bozorni barqaror ta’minlash va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish tamoyillariga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tabiiy gaz O‘zbekiston energetika tizimining tarixiy shakllanishida va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega resurs bo‘lib kelgan. Kelgusida uning ichki ehtiyojlar uchun foydalanilish samaradorligi tabiiy gazni tejash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va energetika tizimining diversifikatsiya darajasini oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni “O‘zbekneftgaz”ni tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T.,1992. №7 (1195). – B. 264.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekneftgaz” O‘zbekiston davlat neft va gaz sanoati konserni faoliyati masalalari to‘g‘risidagi № 233-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 1992. № 5. – B.4-9.
3. O‘zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni “O‘zbekneftgaz”ni tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T.:,1992. №7 (1195). – B. 264.
4. O‘zbekiston neft va gaz sanoati davlat konsernini Neft va gaz sanoati (“O‘zbekneftgaz”) milliy korporatsiyasiga aylantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T.,1993. №2. – B. 32-33.
5. “O‘zbekneftgaz” neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarori. № 31, 1993 yil 14 yanvar // O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 1993. № 1. – B. 5.
6. “O‘zbekneftgaz” neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarori. № 31, 1993 yil 14 yanvar // O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 1993. № 1. – B. 8.
7. O‘sha joyda. – B. 8.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekneftgaz” neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida 1993 yil 14 yanvardagi № 31-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 1993. № 1. – B.7-8.